

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOVA KOMILA DANİYAROVNA

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA
INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Karimova Komila Daniyarovna

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish..... 3

Каримова Комила Данияровна

Повышение эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности..... 45

Karimova Komila Daniyarovna

Increasing the efficiency of investments in small business and entrepreneurial activity..... 91

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 96

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KARIMOVA KOMILA DANİYAROVNA

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA
INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Iqt496 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshpo'latov Davron Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.1.03.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "13" 11 da soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2 uy. Tel.: (99871) 207 07-32; (99871) 207-14-64; e-mail: tdtu_info@tdtu.uz

Dissertatsiya bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (57 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2 uy. Tel.: (99871) 207 07-32; (99871) 207-14-64.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil "13" 11 dagi 15 raqamli reestr bayonnomasi).



M.A. Ikramov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.I. Begmullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.A. Tillyaxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobat va moliyaviy beqarorlikning kuchayishi investitsiyalardan samarali foydalanishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Xalqaro va milliy miqyosdagi ko'plab beqarorlik omillari ta'sirida investitsiyalardan foydalanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi nomutanosibliklar vujudga kelmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yuqori texnologik ishlab chiqarish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday imkoniyat va uni erishishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samaradorligini ta'minlash ularning qay darajada va qanday shakllarda jalb qilinishiga ham bevosita bog'liqdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 85 foizi, rivojlanayotgan mamlakatlarda 62 foizi to'g'ri kelgan¹. Bu farq rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning sanoatdagi roli yuqori ekanligini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hali bu salohiyat to'liq ishga tushmaganini ko'rsatadi. Bu holat iqtisodiy siyosat, infratuzilma, moliyalashtirish imkoniyatlari va texnologik rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababdan ham kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish asosida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashni taqozo etmoqda.

Jahondagi global iqtisodiyot beqarorlik sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida investitsiyalardan samarali foydalanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishdagi izlanishlar kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarida investitsiyalardan foydalanishga oid nazariy-uslbiy yondoshuvlar, barqaror rivojlanish maqsadlarining investitsiyalarni jalb qilishga ta'siri, xorij investitsiyalardan samarali foydalanishning innovatsion usul va vositalarini joriy etish, raqobat muhiti sharoitida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratish investitsion muhitning hududiy tafovutlari, investitsiya resurslari oqimidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, investitsion xavflarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotlar, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda kichik tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ularni xalqaro bozorga olib chiqish masalalarini ham qamrab olmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ham kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

¹ <https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2024>

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan yanada keng foydalanishga e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada hukumat tomonidan soliq imtiyozlari, kredit resurslarining kengaytirilishi, kichik biznes subyektlarida investitsiya faoliyati muhitini, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini bozor talablari asosida takomillashtirib borish, ularning iqtisodiy holatlarini o‘rganish, kichik biznesni moliyaviy, huquqiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqish, tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish, biznes yuritishda shaffoflikni ta‘minlash, infratuzilmani yaxshilash va tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning bozor infratuzilmasiga kirishini ta‘minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish choralari ko‘rilmogda. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari ham kengaymoqda. 2025-yilda “kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda 34 foizga, eksportda 34 foizga va aholi bandligini ta‘minlashda 75 foizga yetkazish”² bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi va mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” Strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da, 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 30-avgustda PF-132-son “Tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabr PQ-312-son “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 37-son “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni.

tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ko'p qirrali tadqiqot ishlari jahonning nufuzli ilmiy, tahliliy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, sohaga aloqador xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Jahon banki (The World bank), Xalqaro valyuta fondi (IMF-International Monetary Fund), Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi (NBER-National Bureau of Economic Research), Harvard University, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, University of Chicago, Columbia University, Princeton University, Duke University (AQSh), University of Oxford, London School of Economics, University of Cambridge, London Business School, Imperial College London, University of Manchester, University of Warwick, University of Birmingham (Buyuk Britaniya), Mannheim University, Deutsche Vank, University of Bonn (Germaniya), University of Paris Sorbonne, Rennes School of Business, EDHEC Business School, Audencia Business School, Organization for Economic Cooperation and Development (Fransiya), University of Tokyo, Kyoto University, Osaka University, Tohoku University, Nagoya University, Asian Development Bank Institute (Yaponiya), Seoul National University, Korea University, Yonsei University, KAIST (Janubiy Koreya), University of Navarra, Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy

³ <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>; www.ifc.org; National Bureau of Economic Research (NBER). Institute for Economic Policy Research of the Stanford University, <https://www.harvard.edu/> Harvard University, <https://www.mit.edu/> Massachusetts Institute of Technology, <https://www.stanford.edu/> Stanford University, <https://www.uchicago.edu/en-University> of Chicago, <https://www.columbia.edu/> Columbia University, <https://www.princeton.edu/> Princeton University, <https://duke.edu/> Duke University; <https://www.ox.ac.uk/> University of Oxford, <https://www.lse.ac.uk/> London School of Economics and Political Science, <https://www.cam.ac.uk/> University of Cambridge, <https://www.london.edu/> London Business School, <https://www.imperial.ac.uk/> Imperial College London, <https://www.manchester.ac.uk/> University of Manchester, <https://warwick.ac.uk/> University of Warwick; <https://www.uni-mannheim.de/en/> Mannheim University, <https://www.db.com/> Deutsche Bank, www.uni-bonn.de University of Bonn; <https://www.sorbonne-universite.fr/en-University> of Paris Sorbonne, <https://www.rennes-sb.com/> Rennes School of Business, <https://www.edhec.edu/en-EDHEC> Business School, <https://www.audencia.com/en/> Audencia Business School; <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/> University of Tokyo, <https://www.kyoto-u.ac.jp/en/> Kyoto University, <https://www.osaka-u.ac.jp/en/> Osaka University, <http://www.tohoku.ac.jp/> Tohoku University, <https://en.nagoya-u.ac.jp/> Nagoya University; <https://en.snu.ac.kr/> Seoul National University, <https://www.korea.edu/> Korea University, <https://www.yonsei.ac.kr/> Yonsei University, <https://www.kaist.ac.kr/en/> KAIST; <https://en.unav.edu/> University of Navarra, <https://www.uc3m.es/> Universidad Carlos III de Madrid, <http://www.fa.ru/> Финансовый университет при Правительстве Российской Федерatsii, <https://www.rea.ru/> Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова, <https://www.ranepa.ru/> Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте РФ, <https://tsue.uz/> Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, <http://www.tsue.uz/> Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: kichik biznes subyektlariga yo'naltirilgan investitsiyalar eng samarali natijani o'z faoliyat sohasiga mos ravishda amalga oshirish strategik rejalashtirilgan (The World Bank), ilg'or texnologiyalar va raqamli yechimlarga yo'naltirilgan sarmoyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari aniqlangan (Institute for International Urban Development-AQSh), davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali kichik biznesga katta infratuzilmaviy loyihalarda ishtirok etish imkoniyati yaratilgan (Financial and Insurance Advisory Services (FIAS)), xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda mahalliy sarmoyadorlarni rag'batlantirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash kichik biznes barqarorligini ta'minlash yo'llari ochib berilgan (OECD), moliyaviy-investitsion faolligini ta'minlashda investitsiya loyihalari uchun tarif va notarif imtiyozlarni qo'llash samaradorligi isbotlangan (Asia-Pacific Economic Cooperation), moliyaviy-investitsion barqarorligini ta'minlashning chegaraviy qiymatlarini belgilashda hududiy rivojlanishdagi farqlarni hisobga olish muhimligi asoslangan (International Monetary Fund), kichik biznes korxonalarini tashkil etish shakllarining xorijiy mamlakatlarda turlicha qo'llanilishi olib borilgan tadqiqot asosida ular o'rtasida ma'lum darajada bog'liqlik borligi va ular o'rtasidagi farqlar ochib berilgan (Organization for Economic Cooperation and Development), iqtisodiy o'sish va boshqa muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlik ekonometrik modellar asosida tadqiq qilish (IMF-International Monetary Fund), o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiya muhiti va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (European Bank for Reconstruction and Development), korxonalarini investitsiyalash va uni innovatsiya bilan bog'lashi, uni yuqori natijalarga erishish jarayoniga tadbirkorlik amaliyotida olib kelishi o'rganilgan (Tokio-Asian Development Bank Institute), ishlab chiqarish samaradorligini investitsiyalash asosida oshirish va kichik biznes tadbirkorligi rivojlanish usullari yoritib berilgan (The Center for Regional Analysis at the University of Gothenburg - Shvesiya).

Jahon amaliyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning metodologik, ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlar: kichik biznes uchun maxsus ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimini yaratish orqali investitsiya loyihalarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirini to'liq baholash imkonini beruvchi metodologiyalar ishlab chiqilmoqda; venchur kapital, biznes farishtalar (angel investors), kraudinvesting va boshqa zamonaviy moliyalashtirish vositalarining kichik biznesda qo'llanilishi uchun metodik asoslar o'rganilmoqda; tadbirkorlar uchun o'quv dasturlari, maslahat markazlari va raqamli platformalar orqali investitsion qarorlar qabul qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirilmoqda; biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar va akseleratorlarning investitsiyaviy jozibadorlikdagi o'rnini aniqlash va ularni optimallashtirish; kichik biznesdan innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va

raqobatbardoshlikni ta'minlash omili sifatida foydalanish; kichik biznesdagi ishlovchilarni kasbiy va qayta tayyorlashni biznes-ta'lim tizimini kengaytirish orqali takomillashtirish; kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning iqtisodiy-matematik modellaridan foydalanish va prognoz qilish orqali mustahkamlashni takomillashtirish; investitsiyalarni jalb etishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, innovatsiyalar transferi orqali investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari bo'yicha xorijlik iqtisodchi-olimlar M.Yunus, F.Allen, D.Geyl, M.Dobindo, T.Kulakova, M.Moiseeva, O.Ushakova, S.Bereznyov, T.Mamzina, V.Ruben, Shanel-Reyno, E.Tixonova, K.Makkonel, L.Buryus, Jon Lester, A.Ambarkulov, F.Fedor, A.Komov, A.Anganbegyan, V.Vlasovoy, B.Sevetova, I.Gerchikova, V.Gluxov, A.Alisov, M.Lapusta, V.Nikitin, G.Kleynerlar⁴ning ilmiy-tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan: S.Gulyamov, A.O'lmasov, A.Vaxobov, N.Xaydarov, B.Mamatov, R.Yunusov, N.Murodova, A.Siddiqov, D.Alatova, A.Burxanov, N.Karimov, D.Bababekova, I.Bakiyeva, I.Ibragimov, M.Abduraxmonova, S.Salayev, U.Gofurov, R.Kalandarov, O.Aripov, Q.Sharipovlarning ilmiy ishlarida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish bevosita va bilvosita tadqiq qilingan⁵.

⁴ Юнус М., Жоли А. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: “Альпина Паблишерз”, 2010.; Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: “MIT Press”, 2000.; Добындо, М. Н. Развитие предпринимательства как предпосылки устойчивой инновационной трансформации региональной экономики / М. Н. Добындо // Региональная экономика: теория и практика. – 2012. – № 13. – С. 55– 62.; Кулакова, Т. В. Государственное стимулирование модернизации промышленности: микроэкономический подход / Т. В. Кулакова, М.А.Моисеева // Журнал экономической теории. – 2012. – № 3. – С. 162–168.; Ушакова, О. А. Возрастание роли малого промышленного бизнеса в модернизации экономики / О. А. Ушакова // Известия вузов. Поволжский регион. Общественные науки. – 2012. – № 2. – С. 177–181.; Березнев, С. В. Развитие малого предпринимательства как инструмент повышения эффективности экономики регионов с высокой концентрацией монопрофильных муниципальных образований / С. В. Березнев, Т.Ф. Мамзина // Региональная экономика: теория и практика. – 2011. – № 42. – С. 2–9.; Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. – М.: ТЕИС, 2000. – С. 182-189.; Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME – Presses Universitaires de Lyon, 2001.; Тихонова Е.О. Роль интеграции в развитии традиционного и инновационного малого бизнеса // “Российское предпринимательство”. №2, 2008.; Макконелл К.Р., Брюс Л. Экономикс. Т-1. – М.: «Дело», 1992. – С. 38.; John Lester. Policy Interventions Favouing Small Business: Rationales, Results and Recommendations. University of Calgary.The School of Public Policy Publications.; Александр Амбаркулов, Федор Ф. Стерликов. 1000 терминов рыночной экономки. – М.: «Крон-Пресс», 1993. – С. 34.; Комов А. Анализ системы кредитования реального сектора экономики. // Русское экономическое общество. 2013. №141. С. 8.; Аганбегян А. Г. Модернизация реального сектора экономики // Деньги и кредит. 2010. № 3. С. 6.; Власовой В.М. Основы предпринимательской деятельности: экономическая теория: Учебное пособие.-М.: «Финансы и статистика», 2012,-192 с.; Цветова И. Опыт Японии: политика стимулирования малого бизнеса. /Инвест-вести/, 2009. №10-11. С.; Герчикова, И.Н. Менеджмент [Текст] / И.Н. Герчикова. – М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1995. – 480 с.; Глухов, В.В. Менеджмент. Учебник для вузов [Текст] / В.В. Глухов.– 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 608 с.; Алисов, А.Н. Управление развитием малого предпринимательства в регионах России: монография // А.Н. Алисов, С.Е. Грищенко. – М.: МАКС Пресс, 2003. – 175 с.; Лапуста, М.Г. Малое предпринимательство: Учебник [Текст] / М.Г. Лапуста. – М.: ИНФРА-М, 2011. – 685 с.; Никитин В.А. Организационные типы современной культуры : автореф. дис. ... д-ра культурологии. Тольятти, 1998. 46 с.; Клейнер Г. К спору о методе: исследование бедности или бедность исследования (О статье М. Локшина «Использование научного метода в российских исследованиях в области бедности») // Вопросы экономики. 2008. № 6. С. 61–70.

⁵ G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes: Iqtisodiyot yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Т.: “Sharq”, 2002. – В. 8.; O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – Т.: “Sharq”, 2006. – В. 142.;

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITM-3. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy o'rganish hamda bu bo'yicha tegishli ishlanmalarni shakllantirish;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining normativ-huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning hozirgi holati va o'zgarish tendensiyalarini tahlili qilish asosida muhim ilmiy xulosalar shakllantirish;

Haydarov N.H. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati T:2003 y. 14-15 betlar.; Mamatov B.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash amaliyoti va uni takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2010. – B. 16-17.; Yunusov R.M. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: "TDIU", 2008. – B. 7.; Murodova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: "Akademiya noshirlik markazi" duk, 2016. – B. 17.; Siddiqov A.J. O'zbekiston taraqqiyotida investitsiyalarning roli va ularni jalb etish jozibadorligi.stat.uz. 2018 yil.; Almatova D.S. "Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtoreferati. Toshkent. 2018 y.; Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018 yil. №10.,7-13 bet.; Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.; Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: "Iqtisod-Moliya" 2019., 40 b.; Bakieva I.A. O'zbekiston yengil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Dis. ... iqt. fan. nomz. - T., 2012.; Ibragimov I.U. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Dis. ... iqt. fan. nomz. - T., 2012.; Abduraxmonova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. Dis. ... iqt. fan. nomz. - F., 2012.; Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash (O'zbekiston Respublikasi misolida). Dis. ... iqt. fan. d-ri. – T., 2008.; Gofurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. Avt.ref. iqt.fan. doktori.-T.: 2017. 30 b.; Kalandarov R.A. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyot real sektorining innovatsion taraqqiyotini ta'minlash. Ilmiy-ommabop risola.-T., 2019. 52 b.; Aripov O.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019.; Sharipov Q.B. Kichik tadbirkorlik faoliyatida tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: "Akademiya noshirlik markazi" nashriyoti, 2020. 61 b.;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini baholash va ilmiy tavsiyalar berish;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi konseptual jihatlarini tahlil qilish;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish;

taraqqiy etgan mamlakatlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb qilish tajribasini o'rganish asosida ilmiy takliflar berish;

rivojlanayotgan davlatlar tajribasining kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb qilish bo'yicha zamonaviy metodologiyasini tadqiq etish;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb etishda ilg'or xorij tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni aniqlash;

kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kichik biznes va tadbirkorlik subektlari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellashtirish, statistik ma'lumotlarini guruhlash, qiyosiy tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

har yili oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tijorat banklariga ajratilgan resurslarning kamida 100 mlrd so'm qismini kasanachilik loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish asoslangan;

kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalari qiymati 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foiz miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga ko'chmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko'rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritish asoslangan;

tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish asoslangan;

tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish va asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish taklif etilgan;

bitta mahallada joylashgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bir nechta investitsiya loyihalarining umumiy qiymati 200 milliard so'mdan oshgan taqdirda, ushbu loyihalarining tashqi infratuzilma obyektlarini 30 foizni davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy himoya yagona reyestrda turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlagan kichik va o'rta biznes subyektlariga ushbu fuqarolar uchun tashkil qilingan har bir ish o'rniga qo'shimcha ravishda 10 million so'mdan, 10 va undan ko'p ish o'rinlarini tashkil qilgan subyektlarga 100 million so'mgacha 3 yilgacha muddatga yillik 14 foiz stavkada aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kredit ajratish taklif etilgan;

kichik tadbirkorlik subyektlariga 500 million so'mgacha milliy va xorijiy valyutada Kompaniya stavkasi hamda lizing kompaniyalarining marjasi qo'shilgan stavkada lizing ajratish taklif etilgan;

xalqaro va mahalliy ekspertlarni jalb qilgan holda o'sish va rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan tadbirkorlar faoliyatiga ko'mak berish va hamrohlik qilish bo'yicha mentorlar yoki yetakchi tadbirkorlar guruhini shakllantirish faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etilgan;

umumiy ovqatlanish, turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini har oyning 25 sanasiga qadar respublika budjetidan qaytarish tizimini joriy etish taklif etilgan;

ijtimoiy soliq to'layotgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun "Biznesga birinchi qadam" bank kartalari orqali 5 million so'mgacha miqdorda bir yil muddatgacha mikroqarzlarni taqdim etilishini tashkil etish va muvofiqlashtirib borish taklif etilgan;

kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga investitsiya jalb etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida investitsiyalar hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ular doirasida foydanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, aniq me'yoriy hujjatlar va iqtisodiy normativlar hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta fondi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining amaliy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, ekonometrik tahlilga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy xulosalar hamda uslubiy takliflardan raqobat muhitida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda investitsiyalardan foydalanishga oid nazariy-metodologik va statistik usullarda tahlil qilishga oid ilmiy va uslubiy yondashuvlar hamda mavzuga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikada tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida investitsiyalardan foydalanish samaradorligining oshirish hamda prognozlashda, sohani yanada samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui va dasturlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan ilmiy konsepsiya, qonunlar, qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiya", "Kichik biznes xo'jaligi

iqtisodiyotini iqtisodiy tahlil qilish”, “Innovatsion iqtisodiyot” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

har yili oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tijorat banklariga ajratilgan resurslarning kamida 100 mlrd so‘m qismini kasanachilik loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 yanvardagi 37-son “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 7-iyuldagi 07-61/00689-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kasanachilikda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish imkoniyati yaratilgan, bu esa ishsizlik darajasini pasaytirishga imkoniyat yaratgan;

kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalari qiymati 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foiz miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga ko‘chmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko‘rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan. (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 7-iyuldagi 07-61/00689-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ustav kapitalining 20 foizini tashabbuskorlar ko‘chmas mulk yoki boshqa jismoniy aktivlar shaklida kiritishi, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan. (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 7-iyuldagi 07-61/00689-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kafillik taqdim etilishi, ko‘plab kichik va yangi boshlovchi tadbirkorlar uchun qulay imkoniyat yaratishga, banklar va mikromoliya tashkilotlarida riskni kamaytirishga xizmat qilgan.;

tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish va asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 7-iyuldagi 07-61/00689-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tadbirkorlar 7 yilgacha imtiyozli davr bilan kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu esa biznesni yo‘lga

qo'yish yoki kengaytirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich mablag'ni olishni osonlashtirgan. Imtiyozli davrda to'lovlar kechiktirilishi tadbirkorlarning boshlang'ich bosqichda moliyaviy yukini kamaytirgan;

bitta mahallada joylashgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bir nechta investitsiya loyihalarining umumiy qiymati 200 milliard so'mdan oshgan taqdirda, ushbu loyihalarning tashqi infratuzilma obyektlarini 30 foizni davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan. (Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 7-iyuldagi 07-61/00689-son ma'lumotnomasi). Natijada, davlat tomonidan infratuzilma xarajatlarini qoplashning 30 foizi tadbirkorlar uchun katta moliyaviy yengillik yaratgan. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlarga o'z loyihalariga ko'proq resurs ajratish va investitsiyalarni samarali yo'naltirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 10 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 252 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy qarashlari, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining normativ-huquqiy asoslari va uslubiy masalalari ochib berilgan.

Ilmiy manbalarda va iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning mazmun-mohiyati bo'yicha turlicha fikrlar mavjud. Masalan, Nobel mukofotining sohibi, M.Yunusning xulosasiga ko'ra, "endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda

asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi".⁶ Fikrimizcha, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda juda muhim bir nuqtani ko'rsatadi. Kreditlashning asosiy maqsadi nafaqat moliyaviy resurslar taqdim etish, balki ijtimoiy samara yaratishdir. Bu, o'z navbatida, kichik bizneslarni nafaqat iqtisodiy o'sishga erishish, balki jamiyatda ijtimoiy farovonlikni oshirishga yordam berish uchun qo'llab-quvvatlashni anglatadi.

Professorlar, F.Allen va D.Geyl "kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e'tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi".⁷ Fikrimizcha, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur mamlakatlarda kichik biznesni kreditlash tizimida tijorat banklari yetakchi mavqega ega hisoblanadi.

M.Dobindo fikriga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsion o'zgarishlarini tahlil qilib, kichik tadbirkorlikning innovatsion yangilanishni rivojlantiruvchi kuch sifatidagi omilni alohida ta'kidlagan.⁸ Fikrimizcha, kichik tadbirkorlikning innovatsion yangilanishni rivojlantiruvchi kuch sifatida ko'rsatilishi, ushbu sohaning iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning yangi, samarali va raqobatbardosh shakllarini yaratishga imkon beradi.

V.Ruben tadqiqotlarida "kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish xarajalarining nisbatan yuqoriligi va bu holat ularning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasiga to'sqinlik qilishi ularni davlat tomonidan har tomonlama moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi (imtiyozli mikrokreditlar, soliq imtiyozlari va boshq.) zarur".⁹ Fikrimizcha, kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish xarajalarining nisbatan yuqoriligi va bu holat ularning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasiga to'sqinlik qilishi haqidagi fikri juda dolzarb. Kichik bizneslarning faoliyatidagi xarajatlar ko'plab omillar, jumladan, texnologik resurslarning yetishmasligi, ishlab chiqarish hajmining kichikligi va boshqa operatsion xarajatlar bilan bog'liq holda yuqori bo'ladi.

Shanel-Reyno va Bluanning fikriga ko'ra, "kichik va o'rta korxonalarining yirik korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo'lga qo'yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o'rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxonalar hamkori bo'lgan kichik va o'rta korxonalarining holatini doimiy ravishda nazorat

⁶ Юнус М., Жоли А. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: "Альпина Паблишерз", 2010.

⁷ Allen F., Gale D. Comparing Financial Systems. – Cambridge, Mass: "MIT Press", 2000.

⁸ Добындю, М. Н. Развитие предпринимательства как предпосылки устойчивой инновационной трансформации региональной экономики / М. Н. Добындю // Региональная экономика: теория и практика. – 2012. – № 13. – С. 55– 62.

⁹ Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. – М.: ТЕИС, 2000. – С. 182-189.

qiladi”¹⁰. Fikrimizcha, kichik va oʻrta korxonalar bilan yirik korxonalar oʻrtasidagi aloqalar va bu aloqalarning tijorat banklari kreditlariga taʼsiri haqidagi tahlili kichik va oʻrta biznesning oʻsish imkoniyatlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega. Ularning fikriga koʻra, yirik korxonalar kichik va oʻrta bizneslar bilan hamkorlik qilishdan oldin, ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qilishadi.

Jon Lester fikriga koʻra, “kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi siyosat aralashuvi: asoslar, natijalar va tavsiyalar” nomli maqolasida kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha federal tashabbuslarni uchta keng guruhga boʻlish mumkinligini takidlab oʻtdi. Bular moliyalashtirish dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash va tadbirkorlar uchun ayniqsa foydali boʻlgan soliq choralaridir¹¹. Fikrimizcha, kichik biznesni qoʻllab-quvvatlovchi siyosat aralashuviga oid tahlili kichik biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U kichik biznes va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha federal tashabbuslarni uchta asosiy guruhga ajratish orqali, har bir sohaga alohida yondashuvni taʼkidladi. Bu yondashuv kichik biznesni samarali qoʻllab-quvvatlashning muhim omillarini ajratib koʻrsatadi.

K.Makkonel va L.Buryuslarning ilmiy ishlarida “kichik biznes – bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida yer resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish boʻyicha tashabbusni oʻz zimmasiga oladi, shu bilan birga biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Shuningdek, kichik biznes yangilik yaratuvchi boʻlib, tijorat asosida yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi, riskli faoliyatdir”¹². Fikrimizcha, kichik biznesni taʼriflashdagi qarashlari aynan shunday kichik biznes nafaqat iqtisodiy faoliyatning bir qismi, balki ijtimoiy va texnologik yangiliklarning muhim manbaidir. Ularning taʼkidlashicha, kichik biznes tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda yer resurslari, kapital va mehnatni samarali tarzda birlashtirish orqali iqtisodiy jarayonlarga faol kirishadi va shu bilan birga biznesni yuritish jarayonida qarorlar qabul qilishda katta erkinlikka ega boʻladi.

A.Ambarkulov va F.Fedor oʻzlarining ilmiy tadqiqotida “biznes – bu muayyan xizmat va mahsulotlarni amalga oshirishni (sotish) barpo etish yoʻli bilan foyda (daromad) olish maqsadidagi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy faoliyatidir”¹³. Fikrimizcha, biznes taʼrifi iqtisodiy faoliyatning asosiy mohiyatini toʻgʻri aks ettiradi. Ularning fikricha, biznes bu mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va ularni sotish orqali foyda olishni maqsad qilgan subyektlarning iqtisodiy faoliyatidir. Bu taʼrif biznesning asl vazifasini va uning bozor iqtisodiyotidagi rolini aniq tushuntiradi.

A.Anganbegyan taʼrifiga koʻra, kichik biznes subʼektlari – bu iqtisodiyotning moddiy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, nomoddiy boylikni yaratuvchi va xizmat koʻrsatish sohalarida faoliyat yurituvchi xoʻjalik subʼektlaridir¹⁴. Fikrimizcha, kichik

¹⁰ Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME – Presses Universitaires de Lyon, 2001

¹¹ John Lester. Policy Interventions Favouring Small Business: Rationales, Results and Recommendations. University of Calgary. The School of Public Policy Publications

¹² Макконелл К.Р., Брюс Л. Экономикс. Т-1. – М.: «Дело», 1992. – С. 38.

¹³ Александр Амбаркулов, Федор Ф. Стерликов. 1000 терминов рыночной экономики. – М.: «Крон-Пресс», 1993. – С. 34.

¹⁴ Аганбегян А. Г. Модернизация реального сектора экономики // Деньги и кредит. 2010. № 3. С. 6.

biznes sub'ektlarining ta'rifi iqtisodiyotdagi kichik biznesning keng qamrovli o'rnini aniq ifodalaydi. Uning fikriga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari faqat moddiy mahsulotlar ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki nomoddiy boyliklarni yaratish va xizmat ko'rsatish sohalarida ham faoliyat yuritadilar.

B.Sevetova ta'rifiga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari – tijoratga asoslangan seriyali va yirik miqdorda mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi, jumladan, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, transport xizmatini amalga oshiruvchi kichik va o'rta korxonalar yig'indisidir¹⁵. Fikrimizcha, kichik biznes sub'ektlarining faoliyatining turli sohalarda qanday keng tarqalganligini yaxshi aks ettiradi. Uning fikriga ko'ra, kichik biznes nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish jarayonlari bilan cheklangan, balki seriyali va yirik miqdorda mahsulot ishlab chiqarish, bino va inshootlarni qurish, aloqa, telekommunikatsiya, va transport xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalarda ham faoliyat yuritadi.

Wikipediya keltirilgan ta'rifga ko'ra, “kichik va o'rta biznes - mustaqil mulk egaligiga, xo'jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o'z tarmog'ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi”¹⁶. Fikrimizcha, kichik va o'rta biznesni belgilovchi mezonlar ham ko'rsatilgan, ular orqali turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes sub'ektlarining maqomi aniqlanadi. Bu mezonlar, masalan, korxonada band bo'lgan ishlovchilar soni, tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko'rsatkichlar orqali kichik va o'rta biznesning faoliyat ko'lamini va mohiyatini baholash imkonini beradi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va A.Vahobov darsliklarida “tadbirkorlik mohiyatan biznesning asosiy turi. Ammo har qanday biznesni tadbirkorlik deb bo'lmaydi. Buning uchun biznes yaratuvchilik belgilariga ega bo'lishi lozim. Biznes keng ma'noda puldan pul chiqarishga qaratilgan faoliyat. Ammo bunday faoliyat yaratuvchilik bo'lganda tadbirkorlik yuzaga keladi, ya'ni bironta ishga kapital qo'yib, resurslarni samarali ishlatib, tovar va xizmatlarni yaratish tashkil etilganda buni tadbirkorlik”¹⁷. Fikrimizcha, tadbirkorlikning mohiyatini va uning biznesdan farqini juda yaxshi tushuntiradi. Ularning fikriga ko'ra, tadbirkorlik nafaqat pul ishlab topish, balki yaratuvchilik va innovatsion yondashuv asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Tadbirkorlikning yaratuvchilik belgilariga ega bo'lishi uning biznesdan ajralib turadigan asosiy xususiyatidir.

Professor R.Yunusov fikriga ko'ra, “kichik biznes – amaldagi huquqiy me'yorlar va erkin raqobat muhiti sharoitidagi foydali iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi sifatida to'lovga layoqatli aholi talabini qondirish hamda ijtimoiy muammolar yechimiga erishish vositasi bo'lib, tarkibiy jihatdan yakka tadbirkorlik, mikrofirmalar va kichik

¹⁵ Цветова И. Опыт Японии: политика стимулирования малого бизнеса. /Инвест-вести/, 2009. №10-11. С.

¹⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Kichik_va_o%CA%BBta_biznes

¹⁷ O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: “Sharq”, 2006. – B. 142.

korxonalaridan iboratdir”¹⁸. Fikrimizcha, kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni va rolini to‘liq aks ettiradi. Uning fikriga ko‘ra, kichik biznes amaldagi huquqiy me‘yorlar va erkin raqobat muhiti sharoitida faoliyat yuritadi, bu esa uni iqtisodiy tizimning muhim va o‘ziga xos qismlaridan biriga aylantiradi.

D.Almatova tadqiqot ishida tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb qilishning mintaqaviy xususiyatlari mavzusidagi monografiyasida mintaqalarda tadbirkorlik sub’ektlarining investitsion-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini asoslab bergan¹⁹. Fikrimizcha, mintaqaviy xususiyatlar va investitsiya jalb qilishdagi muammolarni aniqlash masalalari, hududiy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Mintaqalarda tadbirkorlik sub’ektlarining investitsion-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning asosiy masalalari va ularni hal etish yo‘llari, nafaqat iqtisodiy o‘rni ta‘minlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlashga yordam beradi.

N.Q.Murodova ilmiy ishlarida “kichik biznes – huquqiy shaxs sifatida korxonalar tashkil qilish evaziga tadbirkorlik ishini yuritadigan, amaliyotda kichik korxonalar faoliyati ustidan statistik kuzatuvlar olib borish va taqqoslash uchun foydalanishda, hududlararo va xalqaro tahlil qilishda qulaylik yaratish maqsadida, kichik biznes o‘lchamlarini aniqlash hamda imtiyozlar olish uchun yo‘naltiriladigan korxonalarni belgilab olish zarurligida, korxonalarni soliqqa tortish mexanizmidan samarali foydalanish jarayonida, ishchi-xodimlar sonining qat’iy belgilangan me‘yori asosida yuritiladigan xo‘jalik faoliyatidir”²⁰. Fikrimizcha, kichik biznesning huquqiy va amaliy jihatlari juda aniq va to‘liq ifodalaydi. Uning fikriga ko‘ra, kichik biznes huquqiy shaxs sifatida tashkil etiladi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik biznesni korxonalar tashkil qilish orqali boshqarish nafaqat iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, balki hududlararo va xalqaro tahlil qilishda ham qulaylik yaratadi.


Yuqoridagilarni umumlashtirib kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta‘rif berishni maqsadga muvofiq deb bildik. Fikrimizcha, *kichik biznesni faoliyatini bir yoki bir nechta jismoniy shaxslar tomonidan kichik hajmda, o‘z resurslari bilan amalga oshiradigan va umumiy iqtisodiy faoliyatni yirik va o‘rta bizneslardan farq qiladigan shaxsiy mulk asosidagi tadbirkorlik faoliyati deyiladi.*

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllari va iqtisodiy taraqqiyotidagi roli aniqlashga o‘z hissasini qo‘shishi lozim bo‘lgan uning muhim belgilarini quyidagicha izohlash mumkin (1-rasm).

¹⁸ Yunusov R.M. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. I.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T.: “TDIU”, 2008. – B. 7.

¹⁹ Almatova D.S. “Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtoreferati. Toshkent. 2018 y.

²⁰ Murodova N.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: “Akademiya noshirlik markazi” DUK, 2016. – B. 17.



1-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalarni jalb qilishning xususiyatlari, shakllari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli²¹

Fikrimizcha, kichik biznes va tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bandlik darajasini oshirish, aholining daromadlarini ko'paytirish va hududiy tenglikni ta'minlashda bu sohaning ahamiyati beqiyosdir. Kichik biznes subyektlari o'zining moslashuvchanligi, innovatsiyalarga ochiqligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan iqtisodiy muhitda muhim o'rin egallaydi. Biroq ushbu sohaning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Investitsiyalar kichik biznesning texnologik darajasini yuksaltirish, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning iqtisodiy samaradorligi investitsiya shakllarini to'g'ri tanlash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarga ham bevosita bog'liq. Mazkur ishda kichik

²¹ Muallif tomonidan tayyorlagan.

biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalarni jalb qilish shakllari, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda umumiy iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Buguni kunda jahon amaliyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalarni jalb qilishning turli shakllari mavjud bo‘lib, eng ommabop shakllari sifatida (1-rasm): bank kreditlari va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, lizing (ijara asosidagi investitsiya), grantlar va subsidiyalar, sug‘urta tizimi, startaplar orqali sarmoya kiritish, kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish), franchayzing tizimi, kooperatsiya va klasterlashuv va hokazo.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalarni samarali boshqarish va ularni jalb qilish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Investitsion faoliyatni yaxshilash uchun davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar, moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish va innovatsion imkoniyatlardan foydalanish zarur. Kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish, bandlikni oshirish va raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirish mumkin. Bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun kichik biznes va tadbirkorlik sohasida investitsiyalarni jalb qilish, ularning samarali boshqarilishini ta‘minlash va iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash muhimdir.


Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish kichik biznesning iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Investitsiyalarni samarali boshqarish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalangan holda kichik biznesning rentabelligi oshiriladi. Shu bilan birga, investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun zaruriy yondashuvlarni, metodologiyalarni va boshqaruv usullarini ishlab chiqishda yordam beradi. Kichik biznesning rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi uchun investitsiyalarni to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan bo‘lib, unda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirishning ekonometrik modellar asosida tahlil qilingan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini baholash yo‘llari tadqiq qilingan.

Hozirgi globallashtirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda ushbu sektorning ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda investitsiyalar samaradorligi muhim o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar samarali amalga oshirilmoqda. Investitsion muhitni yaxshilash, kredit olish mexanizmlarini soddalashtirish, soliq yuki yengillashtirilishi hamda davlat-xususiy sheriklik

tamoyillari asosida yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bu boradagi ijobiy o‘zgarishlardandir. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari tomonidan jalb qilinayotgan investitsiyalarning samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.


So‘nggi yillarda kichik biznes va mikrofirmalarning tashqi savdo hajmlari sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. 2018 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda eksport hajmi barqaror o‘sish sur‘atini ko‘rsatmoqda. 2018 yilda 3813,4 mln AQSh dollar bo‘lgan eksport hajmi 2024 yilda 9042,4 mln dollarga yetib, ikki barobardan ortiq o‘sish kuzatilmoqda. Ayniqsa, 2022 yildan keyin eksport hajmining keskin o‘sishi kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarining kengaygani hamda mahsulotlar hajmi va sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, import hajmi ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2018 yilda 11006,7 mln AQSh dollarni tashkil etgan import hajmi 2023 yilda 19897,1 mln dollarga ko‘tarilgan, biroq 2024 yilda biroz kamayib, 19028,2 mln dollar darajasiga tushgan. Bu holat kichik biznes va mikrofirmalar ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun chet eldan ko‘proq mahsulot va xomashyo import qilayotganini anglatadi.



2-rasm. Kichik biznes va mikrofirmalarning eksport va importdagi hajmi mln.AQSH dollar²²


Kichik biznes korxonalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi sezilarli darajada oshgan. 2018-yilda bu ko‘rsatkich 47 225,2 mlrd so‘mni tashkil etsa, 2024-yilda 255 883,8 mlrd so‘mga yetib, besh barobardan ortiq o‘sish kuzatilmoqda. Ushbu o‘sish kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga qaratilgan investitsiyalar hajmining keskin ko‘payishidan dalolat beradi. Investitsiyalarning umumiy hajmidagi kichik biznes korxonalarining ulushi ham ijobiy tendensiyaning ko‘rsatmoqda.

²² Muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. 2018-2024-yillarda kichik biznes korxonalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi²³

2018-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida kichik biznes ulushi 38 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 51,8 foizga yetdi. Bu esa kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi rolining oshishi va investitsiyalarni jalb qilishdagi faolligini belgilab beradi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining oshishi kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.



4-rasm. 2018-2024-yillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, ming kishi²⁴


2018 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni barqaror darajada saqlanib qolmoqda va biroz o'sish tendensiyasini kuzatilgan. 2018 yilda bandlik darajasi 10 128,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 10 628,7 ming kishiga yetib, taxminan 5 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakat

²³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

²⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

iqtisodiyotdagi ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatida muhim o‘rin tutadi. Bandlikning barqarorligi va o‘sishi kichik biznes subyektlarining ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynashini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi natijasida yangi ish o‘rinlari paydo bo‘layotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish uchun kichik biznesga qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish, ta‘lim va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2018-2024-yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qurilish va xizmat ko‘rsatish faoliyatining o‘sish sur‘ati aniq namoyon bo‘lmoqda. Qurilish sohasida kiritilgan jami investitsiyalar 2018 yilda 37 451,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich keskin oshib, 178 718,9 mlrd so‘mga yetdi. Bu besh barobarga yaqin o‘sish qurilish sektorining kichik biznesda rivojlanish sur‘atlarining yuqoriligi va yangi loyihalarning ko‘payishini ko‘rsatadi.



5-rasm. 2018-2024-yillar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar hajmi. mlrd so‘m²⁵

Xizmatlar sohasida ham o‘sish sezilarli bo‘lib, 2018 yildagi 84 433,4 mlrd so‘mdan 2024 yilda 302 196,7 mlrd so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati ortayotganini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish bozorida ulushining kengayishini ko‘rish mumkin. Ushbu sohalarda kiritilayotgan investitsiyalar va faoliyat hajmining o‘sishi kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qurilish va xizmatlar sohaslarida raqobatbardoshlikni oshirish va investitsiyalarni oqilona boshqarish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirish zarur.

2019 yildan 2025 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. 2019 yilda umumiy soni 262 930 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yilda u 523 556 taga yetdi, ammo 2024 va 2025 yillarda bu ko‘rsatkich kamayib, mos

²⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

ravishda 417 080 va 358 116 tani tashkil qilmoqda. Bu holat kichik biznes sektorida o‘zgarishlar yoki iqtisodiy shart-sharoitlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)²⁶

	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
O‘zbekiston Respublikasi	262 930	334 767	411 203	462 834	523 556	417 080	358 116
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11 985	14 677	18 288	19 998	22 863	22 066	17 180
<i>viloyatlar</i>							
Andijon	22 560	25 807	31 683	34 999	39 038	24 381	19 967
Buxoro	14 805	19 981	24 809	27 690	30 082	27 594	22 615
Jizzax	11 197	14 011	17 725	19 463	22 474	16 677	13 534
Qashqadaryo	16 218	20 304	25 297	31 152	36 421	27 980	22 452
Navoiy	9 104	14 885	17 931	20 472	22 844	19 539	16 165
Namangan	16 975	21 461	26 531	28 949	32 305	23 136	19 547
Samarqand	19 629	25 643	33 114	40 724	47 943	37 398	31 470
Surxondaryo	11 618	15 509	21 563	24 395	27 368	20 589	19 101
Sirdaryo	8 318	11 026	13 360	13 808	15 036	11 217	8 639
Toshkent	25 410	32 602	40 223	44 156	49 145	38 953	34 389
Farg‘ona	23 304	29 300	36 117	40 403	46 350	36 238	28 076
Xorazm	11 815	15 453	18 875	21 984	25 616	23 854	20 528
Toshkent sh.	59 992	74 108	85 687	94 641	106 071	87 458	84 453

Hududlarga qaraganda, Toshkent shahri kichik tadbirkorlik subyektlari soni bo‘yicha yetakchi hisoblanib, 2019 yilda 59 992 ta subyekt faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2023 yilda u 106 071 taga oshdi va keyingi yillarda ozgina kamayish bilan 2025 yilda 84 453 tagacha tushdi. Viloyatlar orasida Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari ham kichik tadbirkorlikning rivojlangan hududlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Ba’zi viloyatlarda, xususan Andijon, Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo kabi hududlarda faol subyektlar sonining kamayishi kuzatilmoqda, bu esa mahalliy iqtisodiy sharoitlar, investitsiyalar yetishmasligi yoki boshqa tashqi omillar bilan izohlanishi mumkin. Umuman olganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining soni so‘nggi yillarda o‘shish tendensiyasini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, oxirgi yillarda bu ko‘rsatkichda o‘zgarishlar va ba’zi hududlarda kamayishlar qayd etildi. Kichik biznesning barqaror rivojlanishi uchun mahalliy sharoitlarni yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 2018 yildan boshlab asta-sekin kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2018 yilda bu ko‘rsatkich 64,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilda 54,3 foizga tushdi. Bu umumiy iqtisodiy o‘zgarishlar va katta korxonalar faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Hududlar kesimida esa farqlar mavjud. Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi bo‘yicha yetakchi bo‘lib, 2018 yildagi 63,6 foizdan 2024 yilda 65,8 foizga o‘shish ko‘rsatmoqda. Bu hududda kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

²⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi, foizda²⁷

	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	64,3	58,5	57,5	56,9	54,6	54,5	54,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	63,6	62,9	62,3	61,4	61,8	64,7	65,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	75,1	72,4	72,7	74,6	69,6	68,9	69,5
Buxoro	81,5	75,8	76,6	77,1	74,1	73,5	73,0
Jizzax	87,1	84,5	84,1	81	78,7	75,6	74,4
Qashqadaryo	73,9	73,2	74,1	71,8	70	70,9	71,0
Navoiy	44,9	33,7	27,8	29,2	27,9	28,3	25,1
Namangan	82	78	76,3	76,2	74,7	75,3	73,4
Samarqand	81,6	76,6	75	74,3	70,8	72,8	72,3
Surxondaryo	81,8	79,4	78	78,4	77,9	78	77,8
Sirdaryo	79,8	72,7	73	71,2	67,8	66,3	68,2
Toshkent	60,8	54	52	48,2	49,4	52	53,9
Farg‘ona	73,6	72,4	73,3	72,4	71,6	72,5	73,1
Xorazm	80,2	78,2	77,4	75,8	71,9	72,4	72,3
Toshkent sh.	67	56	53,6	51,1	51,2	51,9	52,4

Viloyatlar ichida Jizzax (87,1% dan 74,4% gacha), Buxoro (81,5% dan 73,0% gacha), Namangan (82% dan 73,4% gacha) kabi hududlarda kichik biznes ulushi kamaygan, ammo baribir yuqori darajada saqlanmoqda. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida esa ulush pastroq bo‘lib, Toshkent shahrida 2018 yilda 67 foizdan 2024 yilda 52,4 foizga pasaygan. Navoiy viloyatida kichik biznes ulushi eng past bo‘lib, 2018 yilda 44,9 foizdan 2024 yilda 25,1 foizga tushgan, bu hududda katta sanoat korxonalarining ulushi yuqoriligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi ko‘plab hududlarda sekin kamayayotgan bo‘lsa-da, bu sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyati hali ham katta. Hududlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2018 yildan boshlab sekin pasayib, 64,3 foizdan 54,3 foizgacha tushgan. Bu holat iqtisodiyotdagi katta korxonalar va davlat sektorining ta’sirining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sanoat sohasida kichik biznesning ulushi 2018 yilda 37,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda sezilarli ravishda 32,4 foizga oshdi, bu sohada kichik biznesning o‘sish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Savdo sohasida kichik biznesning ulushi barqaror yuqori bo‘lib, 2018 yildagi 86,3 foizdan 2024 yilda 84,0 foiz atrofida bo‘lgan. Bu savdo sohasining kichik va o‘rta tadbirkorlik uchun asosiy platforma ekanligini ko‘rsatadi.

²⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, foizda²⁸

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM	64,3	58,5	57,5	56,9	54,6	54,5	54,3
Sanoat	37,4	25,8	27,9	27,4	26,0	27,0	32,4
Savdo	86,3	83,6	82,3	86,2	84,7	83,4	84,0
Qurilish	73,2	75,8	72,5	72,5	71,5	74,3	76,5
Investitsiya	38,0	44,3	46,0	45,6	47,9	49,6	51,8
Bandlik	76,3	76,2	74,5	74,5	73,9	74,0	x
Eksport	27,2	27,0	20,5	20,0	31,2	27,9	33,3
Import	56,2	61,6	51,7	45,2	49,5	50,5	48,6
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	98,3	97,9	96,7	96,0	94,8	94,6	95,2
Xizmatlar	56,0	53,2	51,8	51,7	49,4	48,1	57,0
Yuk tashish	55,5	54,4	51,6	42,9	47,4	50,3	50,4
Yuk aylanmasi	79,6	76,5	75,8	72,4	72,4	73,5	75,2
Yo‘lovchi tashish	89,6	90,4	93,5	92,7	92,4	91,5	90,6
Yo‘lovchi aylanmasi	94,8	94,6	95,2	94,6	95,0	95,0	95,0

Investitsiyalar bo‘yicha kichik biznesning ulushi ham barqaror oshib, 2018 yildagi 38 foizdan 2024 yilda 51,8 foizga ko‘tarilgan, bu esa kichik biznesning rivojlanishiga yo‘naltirilgan kapital oqimining oshishini ko‘rsatdi. Bandlik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi taxminan 74 foiz atrofida barqaror bo‘lib, iqtisodiyotda ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Eksport va import sohalarida kichik biznesning ulushi salbiy dinamikaga ega bo‘lib, eksportda 2018 yildagi 27,2 foizdan 2024 yilda 33,3 foizga biroz oshgan, importda esa 56,2 foizdan 48,6 foizga kamaygan. Bu kichik biznesning tashqi savdo operatsiyalarida hali ham rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida kichik biznesning ulushi juda yuqori bo‘lib, 2018 yildan 2024 yilgacha 95 foiz atrofida barqarorligini saqlab kelmoqda.

So‘nggi yillarda kichik biznesning investitsiya resurslaridan foydalanishi sezilarli darajada oshgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2018 yilda 47 225,2 mlrd so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 255 883,8 mlrd so‘mga yetib, besh barobardan ortiq ko‘paygan. Bu o‘shish kichik biznesning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan investitsiyalar hajmining oshganligini ko‘rsatadi. Mashina uskunalar va xo‘jalik jihozlarni sotib olish uchun investitsiyalar ham barqaror o‘shib bormoqda. 2018 yilda 24 943,9 mlrd so‘mni tashkil qilgan bu ko‘rsatkich 2024 yilda 116 766,9 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu o‘shish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va modernizatsiya qilishga e‘tibor qaratayotganidan dalolat beradi. Korxonaning o‘z mablag‘lari asosida amalga oshirilgan investitsiyalar ham oshib bormoqda, 2018 yildagi 14 853,4 mlrd so‘mdan 2024 yilda 69 322,4 mlrd so‘mga yetdi. Bu kichik biznes subyektlarining o‘z resurslarini samarali ishlatish darajasining oshayotganini ko‘rsatadi.


²⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan.

2018-2024-yillarda kichik biznesning investitsiya resurslardan foydalanish holati, mlrd.so‘mda²⁹

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	47225,2	86886,8	96629,2	109202,2	127640,6	176630,5	255883,8
Mashina uskunalar va xo‘jalik jihozlarni sotib olishga investitsiya	24943,9	53383,7	56126,5	54473,7	58254,4	84062,7	116766,9
Korxonaning o‘z mablag‘lari	14853,4	14940,6	28824,7	26820,6	29000,9	32424,8	69322,4
Chet el investorlari mablag‘lari	5598,6	44808,8	38580,6	47382	58095	55215,2	165107,7

Shuningdek, chet el investorlari mablag‘lari hajmi ham jiddiy o‘shish ko‘rsatdi. 2018 yilda 5 598,6 mlrd so‘m bo‘lgan xorijiy investitsiyalar 2024 yilda 165 107,7 mlrd so‘mga yetib, bu sohada xalqaro hamkorlikning kuchayayotganini ifodalaydi. Umuman olganda, kichik biznesning investitsiya resurslaridan foydalanish hajmining ortishi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining kengayishiga, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu tendensiyalarni yanada mustahkamlash uchun investitsiya muhitini yanada yaxshilash, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir.

Eksportning tashqi savdo hajmidagi ulushi 2018 yilda 25,7 foizdan boshlanib, 2020 yilda pasayish kuzatilgan (22,3 foiz), ammo keyingi yillarda asta-sekin oshib, 2024 yilda 32,2 foizga yetdi. Bu o‘shish eksportdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi kuchayayotganini ko‘rsatadi, ya’ni kichik biznes eksportda yanada faol ishtirok etmoqda.



6-rasm. 2018-2024-yillarda eksport va importning tashqi savdo hajmidagi ulushi foizda³⁰

Importning tashqi savdo hajmidagi ulushi esa 2018 yilda 68,3 foiz atrofida bo‘lib, 2021 yildan boshlab o‘shish trendiga kirib, 2024 yilda 74,3 foizga yetdi. Bu

²⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

³⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

esa importdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri oshayotganidan dalolat beradi. Tashqi savdoda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport va importdagi ulushlari o'sib bormoqda, bu sohada ularning ishtiroki va raqobatbardoshligi kuchayib borayotganligini anglatadi. Ayniqsa, 2024-yilda eksport ulushining sezilarli darajada oshishi kichik biznesning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatadi.

Dissertatsion tadqiqot bo'yicha ma'lumotlar ko'p omilli vaqtli qatorlar asosida shakllantirilganligi uchun biz ekonometrik modelni ishlab chiqishda ko'p omilli chiziqli tenglamalar (LS) modelidan hamda nochiziqli Strukturaviy tenglamalarni modellashtirish SEM (Structural equation modeling) modellaridan foydalandik.

Quyida ekonometrik model bo'yicha barcha o'zgaruvchilar ifodalangan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Ekonometrik model bo'yicha o'zgaruvchilarning tasnifi³¹

№	O'zgaruvchilar nomi	Birligi	Tasnifi	Logorifmik qiymati
1	Kichik biznesda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi	mlrd so'm	Natijaviy o'zgaruvchi	<i>lnsb_gross_product</i>
2	O'zbekiston Respublikasida kichik biznes tadbirkorlarining eksporti	mlrd so'm	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>lnsb_export</i>
3	Kichik biznesda band aholi soni	ming kishi	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>lnsb_labour</i>
4	Kichik biznesda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	mlrd so'm	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>lnsb_industry_p</i>
5	Kichik biznes faoliyatining asosiy mablag'lariga kiritilgan investitsiya	mlrd so'm	Mustaqil o'zgaruvchi	<i>lnsb_invest</i>

Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda quyidagi gipotezalar o'z aksini topgan. Ekonometrik tadqiqotni ishlab chiqishda bosh (H_0) va muqobil (H_1) gipotezalar o'z aksini topgan.

Kombinatsiyalangan modeldagi gipotezaning tuzilishi:

Bosh gipoeza (H_0): Kichik biznesda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmiga investitsiyalar kuchli ta'sir etmaydi hamda bog'liqlik munosabatdagi ta'sir mavjud emas.

Muqobil gipoteza (H_1): Kichik biznes yalpi qo'shilgan qiymatini oshirishda investitsiya mablag'lari kuchli mustahkam bog'liqlikni ta'siriga ega.

Muqobil gipotezani tekshirish uchun tanlab olingan ko'rsatkichlarning bog'liqligi o'rganilib, ishonch testlariga tekshiriladi. Ekonometrik tadqiqotning ilk bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va unga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar bo'yicha deskriptiv statistik qiymatlar ifodalangan (6-jadvalga qarang).

³¹ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

6-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati va unga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistik ko'rsatkichlar qiymati³²

	<i>lnsb_gross_product</i>	<i>lnsb_export</i>	<i>lnsb_labour</i>	<i>lnsb_industry_p</i>	<i>lnsb_invest</i>
Mean	12.18	9.80	10.47	10.92	9.20
Standard Error	0.24	0.32	0.32	0.26	0.02
Median	12.28	9.61	10.22	11.02	9.22
Standard Deviation	0.92	1.23	1.25	1.00	0.06
Sample Variance	0.84	1.52	1.56	0.99	0.00
Kurtosis	-1.24	-1.07	-1.43	-0.91	0.63
Skewness	-0.16	0.20	0.09	-0.20	-1.18
Range	2.88	3.91	3.84	3.34	0.21
Minimum	10.65	7.96	8.61	9.22	9.06
Maximum	13.53	11.87	12.45	12.57	9.27
Sum	182.64	147.02	157.10	163.85	138.03
Count	15.00	15.00	15.00	15.00	15.00

6-jadvalga ko'ra, model bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi foydasiga va unga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistik ko'rsatkichlar tanlangan o'zgaruvchilarining asosiy iqtisodiy qiymatlari bo'yicha taqsimotni hosil qilgan. Jadval ma'lumotlaridan tasviriy statistik qiymatlar bo'yicha tanlangan barcha o'zgaruvchilar 15 ta kuzatuvni tashkil etgan.

Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka kuchli ta'sir etuvchi asosiy to'rtta omillar aniqlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mahsulotlarini eksport qilish, kichik mahsulot va xususiy tadbirkorlikka yo'naltirilgan investitsiya, sohada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hamda mazkur soha bilan bandlar eng kuchli omillar ekanligi gipotezalar va eng kichik kvadratlar metodidan foydalanib ishlab chiqilgan modellar orqali isbotlandi (7-jadval)

7-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan eksport hajmining o'zaro regression tahlili³³

	Ko'rsatkichlar	1-model	2-model	3-model	4-model
1	Eksport	0.726 (0.047)			
2	Investitsiya		0.727 (0.028)		
3	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish			0.917 (0.025)	
4	Bandlik				2.092 (0.509)
	R kvadrat	0.849	0.881	0.840	0.641
	F test	29.653 (0.000)	65.634 (0.000)	13.107 (0.000)	23.233 (0.000)


To'rtta model natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini batafsil tushunishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki, to'rtta model orasidan eng kuchli ta'sir etuvchi bu soha bilan bandlar hisoblanadi. Kichik

³² Muallif tomonidan tayyorlangan.

³³ Stata dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

biznes va xususiy tadbirkorlik bilan aholining band bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi, masalan, fikrimizcha aholiga tadbirkorlik qilish ko'nikmalari va yo'nalishlarni doimiy o'rgatish va imtiyozlarni yana ham kengaytirish zarur. Ikkinchi ta'sir etuvchi asosiy omil bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali sanoat mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish, soha vakillarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarayotganda biznes inkubatorlar, erkin iqtisodiy hududlar, energetika va infratuzilma bilan ko'oroq ta'minlanishi kerak deb o'ylaymiz.

Uchinchidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni investitsiya bilan ayniqsa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish oshirishimiz muhim hisoblanadi, va keying eng asosiy albatta bu eksport hisoblanadi. Mahsulotlarni eksport qilish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni ko'proq daromad olib raqobatdoshligini oshiradi. Ushbu holatni quyidagi mexanizm asosida tasvirlash sohadagi rivojlanish mexanizmini ifodalaydi.



7-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining mualliflik yondashuvi³⁴

Ilmiy tadqiqotdagi ekonometrik modellar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohani rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni aniqlashdagi muhim qadam bo'ldi. Fikrimizcha, aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirish uchun muntazam ravishda tadbirkorlik bo'yicha o'quv kurslari, seminarlar va amaliy treninglar tashkil etish, shu orqali zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish kerak. Sanoat mahsulotlarini kichik biznes orqali ko'proq ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida soha vakillarini biznes inkubatorlar, erkin iqtisodiy hududlar, energiya ta'minoti va zamonaviy infratuzilma bilan yanada yaxshi sharoitda ta'minlash ham muhimdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda aholi bandligini oshirish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka bevosita hissa qo'shadi, shuning uchun bu yo'nalishga ustuvor e'tibor berish zarur. Sanoat mahsulotlarini kichik biznes orqali ishlab chiqarishni


³⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

rivojlantirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, eksport salohiyatining ortishiga ham xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb qilishni rivojlantirishda xorij tajribalari**” nomli uchinchi bobida taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlari, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar jalb qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, ilg‘or xorij tajribalaridan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida investitsiyalarni jalb qilish bugungi kunda iqtisodiy o‘rning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda ham katta ahamiyatga ega. Jahonda kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni samarali jalb qilish va ularni boshqarishda muhim o‘rinni egallaydi. Dunyoning turli mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan investitsion strategiyalar va amaliyotlar iqtisodiy o‘rning asosiy poydevorlarini yaratgan.

Dunyo bo‘ylab kichik va o‘rta biznes (SME) korxonalarini soni 2023-yilda taxminan 358,7 millionga yetgan. 2020-yilda kichik biznes korxonalarini soni 328,8 milliondan 328,1 millionga pasaydi, bu esa 0,2 foizga kamaygani ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi COVID-19 pandemiyasining ta‘siri bo‘lishi mumkin, chunki pandemiya davomida ko‘plab kichik bizneslar yopildi yoki faoliyati to‘xtatilgan edi.




8-rasm. Dunyo bo‘ylab tashkil qilingan kichik biznes korxonalarini soni, mln ta³⁵

2024-yilda kichik biznes korxonalarini soni 365,3 millionga yetgan, bu 2023 yilga nisbatan 1,8 foizga o‘sgani ko‘rishimiz mumkin. Yillar davomida kichik biznes korxonalarini sonining o‘rning sur‘atlari o‘zgarmay, barqaror tarzda davom etgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, kichik bizneslar global iqtisodiyotda o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

³⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan. <https://www.demandsage.com/business-statistics/>

AQSHning kichik biznesni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha tajribalari o'zining samarali mexanizmlari, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimi, venture capital va angel investorlar kabi yangi investitsiya shakllari, shuningdek, kripto va kraudfanding kabi innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oladi. AQSH tajribasi, kichik bizneslarni rivojlantirish va ularga investitsiyalarni jalb qilishda yuqori samaradorlikka erishishda juda foydalidir. Ushbu tajribalar boshqa mamlakatlar uchun ham qo'llanilishi mumkin, chunki kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash va ularga investitsiyalarni samarali jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

AQSHda tashkil qilingan kichik biznes korxonalari soni va yillik o'zgarishi tahlil qiladigan bo'lsak, 2018-yilga nisbatan kichik biznes korxonalari soni 30,2 milliondan 30,7 millionga ko'paydi. Ushbu yil davomida 1,7 foizga o'sishi kuzatilgan, bu kichik biznes sektorida barqaror o'sishning davom etayotganligini ko'rsatadi.



9-rasm. 2018-2024-yillarda AQSHda tashkil qilingan kichik biznes korxonalari soni va yillik o'zgarishi³⁶

2023-yilda kichik biznes korxonalari soni 33,2 milliondan 33,3 millionga ko'paydi, bu yil davomida 0,3 foizga o'sishi kuzatildi. 2023-yilda o'sish sur'ati juda sekin bo'ldi, bu kichik bizneslar uchun mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga kelgan. 2024-yilga kelsak, kichik bizneslar soni 33,3 milliondan 34,8 millionga oshmoqda, bu yil davomida 4,5 foizga o'sgan. Bu o'sish sur'ati yuqori bo'lib, kichik bizneslar uchun iqtisodiy tiklanish va yangi investitsiyalarni jalb qilishni anglatadi.

AQSHda kichik bizneslarni rivojlantirish va ularni investitsiyalar bilan ta'minlashda bir qator soliq imtiyozlari, hukumat grantlari, kreditlar va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud. Ushbu imtiyozlar kichik bizneslarning moliyaviy holatini yaxshilash, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va yirik kompaniyalar bilan raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

AQSHda kichik bizneslar uchun o'z aksiyalarini sotishdan olinadigan foydadan soliqni kamaytirish imkonini beradigan Qualified Small Business Stock (QSBS) dasturi mavjud. QSBS doirasida kichik biznesning aksiyalari 5 yil davomida

³⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan. <https://www.oberlo.com/statistics/number-of-small-business-in-the-us>

saqlanganda, aksiyalarning sotilishidan olingan daromad soliqlardan ozod qilinadi. Bu imtiyoz investorlarni kichik bizneslarga sarmoya kiritishga undaydi. AQSHda kichik bizneslar uchun Research and Development (R&D) soliq imtiyozlari mavjud. Ular yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni yaratishga sarflangan xarajatlar bo'yicha soliqni kamaytirish imkonini beradi. Bu imtiyozlar startaplar va texnologik kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular innovatsion g'oyalar va mahsulotlarni rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

AQSHda kichik bizneslarni rivojlantirish va investitsiya jalb qilishda imtiyozlar tizimi juda rivojlangan va samarali ishlaydi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam dasturlari, innovatsion grantlar, venture capital va crowdfunding platformalari kichik bizneslarga o'z faoliyatini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu imtiyozlar AQSHning kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

Bugungi globallashtirish davrida Xitoy Xalq Respublikasi jahon iqtisodiyotida muhim o'ringa ega davlatlardan biriga aylangan. Mamlakatning iqtisodiy o'sishi, infratuzilmasi va aholisi sonining ko'pligi uni yirik investitsiya bozori sifatida ajratib turadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xitoy hukumati tomonidan "Mass Entrepreneurship and Innovation" siyosati doirasida kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda. Shu sababli, mazkur sohada investitsiya jalb qilishning yo'nalishlari, imkoniyatlari va yondashuvlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Bu mavzuni o'rganish nafaqat Xitoyda biznes boshlashni rejalashtirayotgan tadbirkorlar, balki xalqaro investorlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Xitoy dunyoning eng yirik savdo davlatlaridan biri bo'lib, uning eksporti va importi global iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Xitoyning keng va diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish bazasi va yirik bozor talabi mamlakatning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Xitoyning eksporti asosan texnologiya, elektronika, kiyim-kechak, o'rmon mahsulotlari va mashinasozlik mahsulotlariga qaratilgan bo'lsa, importlari asosan neft, tabiiy gaz, texnologik uskunalari, xom ashyo va yuqori texnologiyali mahsulotlarni o'z ichiga oladi.

8-jadval

Xitoyning savdo va investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlari, mlrd. AQSH dollari³⁷

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Eksporti	2,6889	2,6698	2,7906	3,6101	3,7709	3,5603	3,7891
Importi	2,5625	2,4943	2,3801	3,0801	3,1468	3,1373	3,142,5
Savdo balansi	126,4	175,5	410,6	530,1	624,1	423,2	596,1
Ichki xorijiy investitsiyalar zaxirasi	1,6283	1,7693	1,9188	3,6333	3,4964	3,6596	3,7526
Tashqi xorijiy investitsiyalar zaxirasi	1,9823	2,1989	2,5807	2,7852	2,7548	2,9391	3,1215

³⁷ <https://assets.publishing.service.gov.uk/media/6812449bc47c2060a91216dc/china-trade-and-investment-factsheet-2025-05-02.pdf> Muallif tomonidan tayyorlangan

Xitoyning eksporti va importi uning iqtisodiyoti uchun asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. 2024-yilga kelib, eksport hajmi 3,7891 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, import hajmi esa 3,142,5 mlrd. AQSH dollarga yetgan. Xitoy mamlakati dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri bo'lib, uning investitsiya zaxiralari ham keng va xilma-xil bo'lib, iqtisodiy rivojlanishining muhim asoslarini tashkil etadi. Tashqi xorijiy investitsiyalar zaxirasi 2018-yilda 1,9823 mlrd. AQSH dollar tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib esa, 3,1215 mlrd. AQSH dollarga yetgani ko'rishimiz mumkin.

Xitoyda kichik biznesga investitsiya jalb qilish bo'yicha tajribalar, asosiy e'tibor, birinchi navbatda, iqtisodiy muhitni yaxshilash, texnologik imkoniyatlarni kengaytirish va moliyaviy yordamlarni taqdim etishga qaratilgan. Bu strategiyalar kichik bizneslarning rivojlanishini rag'batlantirishga, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari Xitoyda kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.


Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya jalb qilish – bu yirik imkoniyatlarga boy, biroq o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Bozor hajmining kattaligi, raqobatbardosh muhit, hukumat tomonidan yaratilgan qulay investitsion sharoitlar bu sohaga sarmoya kiritishni maqsadga muvofiq qiladi. Investitsiya jalb qilishda mahalliy va xorijiy investorlar, davlat dasturlari hamda zamonaviy texnologik platformalardan foydalangan holda kompleks yondashuv muhim rol o'ynaydi. Xulosa qilib aytganda, Xitoyning kichik biznes sektori nafaqat mamlakat ichida, balki global miqyosda ham sarmoyadorlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Singapur dunyoning rivojlangan iqtisodiyoti va moliyaviy markazlaridan biri bo'lib, u kichik va o'rta bizneslar uchun qulay muhit yaratgan. Bu davlatda kichik bizneslar iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya va ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Kichik korxonalar odatda yengilroq boshlanadi, moslashuvchan bo'lib, yangi bozorlarni o'rganishga imkon beradi, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiriladi. Singapurda kichik bizneslar soni va ularning muvaffaqiyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir qilmoqda.

rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2023-yilda Singapurdagi biznes korxonalari soni 311 000 taga yetdi. 7 yillik davr mobaynida Singapurda biznes korxonalari soni ortib borgani ko'rishimiz mumkin. Kichik biznes korxonalar soni ortib borishiga sabab Singapur kichik bizneslar uchun soliq imtiyozlari va yengilliklar mavjud. Masalan, yillik daromadi 100,000 Singapur dollari (SGD)gacha bo'lgan kichik bizneslar uchun daromad solig'i stavkasi sezilarli darajada past hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zi soliq turlaridan imtiyozlar mavjud. Singapurda kichik bizneslarni moliyalashtirish uchun ko'plab kredit va grant dasturlari mavjud. Davlat va xususiy sektorda ko'plab moliyaviy muassasalar kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlashga intiladi. Bu kompaniyalar uchun muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kapitalni olishni osonlashtiradi.

Singapurda transport va logistika infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan, bu esa kichik bizneslarga tez va samarali tarzda mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, Singapurda davlat tomonidan

taqdim etilgan yordam va qo‘llab-quvvatlashlar orqali kichik bizneslar muvaffaqiyatga erishishi uchun yaxshi imkoniyatlarga ham ega.



10-rasm. Singapurda tashkil qilingan kichik biznes korxonalar soni (1000 soniyada)³⁸

Kichik biznes uchun mashhur sohalar sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin: Singapurda IT va texnologiyalar sohasida ko‘plab startaplar rivojlanmoqda. Bu yerda sun‘iy intellekt, blockchain va fintech sohalari juda ommalashgan. Singapur har yili millionlab sayyohlarni qabul qiladi, shuning uchun turizm bilan bog‘liq bizneslar yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, Singapur kichik biznes va tadbirkorlik uchun juda yaxshi imkoniyatlar yaratadi, va mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyat qozonishga imkon beradi. Singapur kichik biznes va tadbirkorlik uchun juda qulay va muvaffaqiyatli muhitga ega. Bu yerda biznesni boshlash oson, soliqlar past, va davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud. Singapurda innovatsion sohalar, texnologiya startaplari, turizm va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda yaxshi imkoniyatlarga ega. Shuningdek, xalqaro bozorlarga kirish uchun qulay infratuzilma va savdo shartnomalari mavjud. Umuman olganda, Singapur kichik bizneslar uchun o‘shish va rivojlanish imkoniyatlari mavjud.

Singapurda tashkil qilingan kichik biznes korxonalari mamlakat iqtisodiyotining muhim komponenti bo‘lib, ularning soni va rivojlanishi davlat siyosati, iqtisodiy muhit va innovatsion imkoniyatlarga bog‘liq. Kichik bizneslar ijobiy muhitda o‘z o‘rnini topib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va iqtisodiy diversifikatsiyani ta‘minlaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Singapurda kichik bizneslarning rivojlanishi mamlakatning barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat tomonidan ta‘minlangan qo‘llab-quvvatlash dasturlari va innovatsion muhit orqali kichik bizneslar yanada rivojlanishi va kengayishi uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuning uchun, Singapurda kichik bizneslarning rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kichik biznes va tadbirkorlikda investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim omil ijobiy muhitni yaratish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, qonunchilik va infratuzilmani rivojlantirish muhim hisoblanadi. Mamlakatlar raqamli texnologiyalar, moliyaviy imtiyozlar orqali investitsiyalarni kengaytirishga muvaffaq bo‘lmoqda. Bu tajribalarni o‘z milliy sharoitlariga moslashtirish va davomiy rivojlantirish orqali, mamlakatlar kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida

³⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan. <https://www.statista.com/statistics/1572452/singapore-number-of-enterprises/>

investitsiyalarni samarali jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish masalalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi konseptual jihatlari va kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari asoslab berilgan.

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal sur‘atlarda rivojlanib, modernizatsiya va diversifikatsiyaga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, kichik biznes innovatsiyalarni joriy qilish, bandlikni oshirish va ichki hamda tashqi bozorlarni kengaytirishda sezilarli hissaga ega. Kichik biznesning barqaror rivojlanishi va uning iqtisodiy o‘rishga qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish uchun investitsiyalarning samarali jalb qilinishi va foydalanilishi zarur. Shuningdek, investitsiyalarning samaradorligini oshirish kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Masalan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kredit olishda yuqori foiz stavkalar, malakali kadrlarning yetishmasligi, byurokratik to‘siqlar, kichik biznes uchun zarur bo‘lgan xizmatlar, infratuzilma va bozor mexanizmlarining yetishmasligi, xalqaro investorlarga qulay sharoitlarning yetishmasligi va mahalliy bozorda cheklovlar mavjudligi, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar, hududlarda infratuzilma va xizmat ko‘rsatish tizimining hyaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, xorijiy investorlar o‘z sarmoyasidan foyda olgach uni chiqarib ketishdagi muammolar va boshqalar.

Har yili oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tijorat banklariga ajratilgan resurslarning kamida 100 milliard so‘m qismini kasanachilik loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish bunda asosan Kasanachilik (uyda ishlab chiqarish) – aholining, ayniqsa xotin-qizlar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta'minlashda qulay va tezkor yechimdir. Aholi orasida ko‘plab kishilar uy sharoitida hunarmandchilik, tikuvchilik, pishirish, zardo‘zlik kabi faoliyat bilan shug‘ullanishga tayyor, ammo moliyaviy resurslarning yetishmasligi ularni to‘liq ishga tushira olmayapti. Kasanachilik loyihalari nisbatan kichik investitsiyalarni talab qiladi (asbob-uskunalar, xomashyo), ammo daromad olish tez boshlanadi. Bu bank uchun ham kreditlarning tez aylanmasini, foiz daromadining o‘rishini ta'minlaydi. Har 5-10 million so‘mlik kredit evaziga bir nafar fuqaro ish bilan ta'minlanadi, bu esa 100 milliard so‘m evaziga kamida 10-20 mingta yangi ish o‘rni yaratilishi mumkinligini bildiradi. Har yili ajratiladigan resurslarning kamida 100 mlrd so‘mini kasanachilikni moliyalashtirishga yo‘naltirish qisqa muddatda ko‘p sonli aholini ish bilan ta'minlash, kambag‘allikni kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotni jonlantirishga xizmat qiladi. Bu taklif davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga ham, bank faoliyati strategiyasiga ham mos keladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarida loyiha qiymatining kamida 15 foizini o‘z ulushi sifatida ishtirok etishi, biroq bu ulushning 20 foizigacha bo‘lgan qismini tashabbuskor tomonidan ustav kapitaliga ko‘chmas mulk,

asbob-uskunalar va boshqa ko‘rinishdagi aktivlar shaklida kiritish imkoniyati taqdim etilishi ushbu taklifda yangi boshlayotgan yoki rivojlanayotgan kichik biznes subyektlari ko‘pincha naqd pul mablag‘lariga ega emas, biroq ularning tasarrufida ishlab chiqarish maydonlari, uskunalar yoki boshqa moddiy aktivlar bo‘lishi mumkin. Bu taklif ularga o‘zlaridagi mavjud aktivlarni ustav kapitaliga kiritib, naqd mablag‘ sarflamasdan ham loyihada ishtirok etish imkonini beradi. Faoliyatni boshlash yoki kengaytirish uchun kapital faqat naqd puldan iborat bo‘lmashligi kerak. Bu taklif aktivlardan foydali foydalanish orqali kapitalni shakllantirishga imkon yaratadi. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ham aktivlar asosida ustav kapitalini shakllantirish keng qo‘llaniladi. Investitsiya loyihasida tashabbuskor ishtirokining 15 foizdan kam bo‘lmashligi loyiha barqarorligini ta‘minlasa, ulushning 20 foizigacha bo‘lgan qismini aktivlar ko‘rinishida kiritish imkoniyati moliyaviy imkoniyatlari cheklangan, biroq real resurslarga ega kichik tadbirkorlar uchun muhim rag‘batlantiruvchi omildir. Bu yondashuv tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘rinishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish mexanizmini joriy etish. Ushbu taklifda Ko‘plab tadbirkorlar bank kreditlari va lizing xizmatlariga murojaat qilmoqda, ammo zarur garov ta‘minotining yo‘qligi ularni moliyaviy xizmatlardan foydalana olmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. Kafillik mexanizmi aynan shu to‘siqni bartaraf etish, moliyaviy inklyuzivlikni ta‘minlash vositasidir. 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan moliyalashtirishlar odatda mikro yoki kichik biznes subyektlariga xos bo‘lib, ularga davlat tomonidan kafillik berilishi kredit xavfini pasaytiradi. Bunday kichik hajmdagi loyihalarda xavf ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lib, samarali nazorat qilish imkoniyati yuqori. Kafilliklar orqali davlat (yoki uning vakolatli agentliklari) kichik va o‘rta biznes subyektlarining rivojlanishini moliyaviy jihatdan himoya qiladi. Bu esa tadbirkorlar uchun ishonch muhitini yaratadi va xususiy tashabbusni faol rag‘batlantiradi. Xorijiy valyutadagi akkreditivlar va kafolatlar orqali tadbirkorlar import uskunalar olib kirishi yoki eksport bitimlarida ishtirok etishi mumkin. 5 milliard so‘mgacha bo‘lgan kredit va moliyalashtirish vositalariga davlat yoki maxsus fondlar orqali kafillik berish kichik biznesni keng jalb qilish, moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu mexanizm xatarlarni kamaytirgan holda iqtisodiy o‘rinishni jadallashtiradigan samarali vositadir.

Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun quyidagi shartlarda kredit va lizing ajratish: 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga kreditlar; Aylanma mablag‘lar uchun revolver shaklida 3 yilgacha kredit; Kreditlar Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foiz punkt yuqori stavkada; 1,5 milliard so‘mgacha miqdorda; Asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Ko‘plab kichik tadbirkorlar va yangi biznes tashabbuskorlari dastlabki bosqichda daromad olishgacha bo‘lgan vaqt mobaynida qarzni qaytarishda qiynaladilar. 2 yilgacha imtiyozli davr aynan shu bosqichda naqd pul oqimining barqarorlashishi va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun muhim moliyaviy nafasdir. 7 yilgacha bo‘lgan muddat kredit oluvchiga to‘lov yukini qismlarga bo‘lib to‘lash imkonini beradi, bu esa sarmoya samaradorligini oshiradi. Bunda sarmoyaning to‘liq rentabelligi va amortizatsiya davri hisobga olinadi. Tadbirkorlar ko‘pincha aylanma mablag‘lar tanqisligidan qiynaladilar (xomashyo, yarim

tayyor mahsulotlar, ish haqi, soliq). Revolver kredit mexanizmi aylanma mablag'ni qayta-qayta ishlatish imkonini beradi, bu esa faoliyat barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur taklif moliyaviy infratuzilma orqali kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning kompleks va amaliy yechimidir. Ushbu mexanizm orqali: Yangi ish o'rinlari yaratiladi, tadbirkorlarning moliyaviy yuklamasi yengillashadi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar faoliyati rag'batlantiriladi, banklar va lizing tashkilotlari uchun ham xavfi nisbatan past va rentabelli portfel shakllanadi. Bu taklif iqtisodiy o'sishni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtiradigan muhim vositadir.

2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari joriy qilingan bo'lib, ular O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi kichik va o'rta biznes subyektlarining o'sishiga, ularning iqtisodiy faoliyatda ulushini oshirishga qaratilgan. Quyidagi ko'rsatkichlar bu maqsadlarga erishish uchun belgilangan yo'nalishlar va ularga erishish uchun kerakli indikatorlari eks ettirilgan.

9-jadval

2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari³⁹

T/p	Ko'rsatkichlar	2024	Yillar bo'yicha ko'rsatkichlar					
			2025	2026	2027	2028	2029	2030
1.	Kichik va o'rta biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	54,3	55	56	57,1	58,2	59,2	60
2.	Kichik va o'rta biznes subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi	32,4	33,7	35	36,4	37,6	39	40
3.	Kichik va o'rta biznes subyektlarining eksportdagi ulushi	33,3	33,6	33,9	34,2	34,5	34,8	35
4.	Kichik va o'rta biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi ulushi	74	74,5	75,1	75,7	76,5	77,2	78
5.	Har 1 000 kishiga to'g'ri keladigan faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni	12,1	13,1	14,2	15,3	16,5	17,7	19
6.	Xodimlari soni 10 kishidan kam bo'lmagan kichik va o'rta biznes sub'ektlarining jami kichik va o'rta biznes subyektlari sonidagi ulushi	7,2	7,8	8,5	9,2	9,9	10,6	11
7.	Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati	6,1	6,6	6,7	6,8	6,9	7,0	7,1
8.	O'zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Savdoni osonlashtirish indikatoridagi (OECD Trade Facilitation Indicator) ko'rsatkichi	0,85	-	1,0	-	1,2	-	1,3
9.	O'zbekistonning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksidagi (EGDI) o'rni	63	-	58	-	54	-	50
10.	O'zbekistonning Global startup ekotizimi indeksidagi (Global startup ecosystem index) o'rni	110	105	98	91	85	80	75

³⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Kichik va o'rta biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga oshishi kutilmoqda, 2024-yildan 2030-yilgacha bu ko'rsatkich 54,3 foizdan 60 foizgacha oshadi. Sanoat mahsulotlaridagi ulushning ortishi kichik va o'rta biznesning ishlab chiqarish qobiliyatining oshganligini ko'rsatadi. Bu raqam 2024-yildan 2030-yilgacha 32,4 foizdan 40 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda.

Kichik va o'rta biznesning eksportdagi ulushi ham asta-sekin ortadi, bu esa mamlakatning eksport salohiyatining oshayotganligini anglatadi. Kichik va o'rta biznesning aholi bandligini ta'minlashdagi ulushi yuqori darajada bo'lib qoladi, bu esa iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har 1 000 kishiga to'g'ri keladigan faol kichik biznes subyektlari soni 2024-yilda 12,1 dan 2030-yilga kelib 19 ga oshadi. Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesga ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 6,1 foizdan 7,1 foizgacha oshishi kutilyapti, bu esa biznes uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonning Savdoni osonlashtirish va Global startap ekotizimi ko'rsatkichlaridagi o'rni ham asta-sekin yaxshilanadi, bu esa mamlakatni xalqaro bozorlar uchun yanada jozibador qiladi.


Agar bir mahallada joylashgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining bir nechta investitsiya loyihalari umumiy qiymati 200 milliard so'mdan oshsa, ushbu loyihalarning tashqi infratuzilma obyektlarining (yo'l, elektr, gaz, suv va kanalizatsiya tarmoqlari) qurilishi xarajatlarining 30 foizini davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish. Yirik investitsiya loyihalarida eng katta to'siqlardan biri tashqi infratuzilmaning mavjud emasligi yoki katta xarajat talab qilishi. Davlat tomonidan xarajatlarning 30% gacha qismini moliyalashtirish: tadbirkorlar zimmasidagi moliyaviy bosimni kamaytiradi; loyihalarning kechiktirilmadan ishga tushishini ta'minlaydi; ularni joylashgan hududda iqtisodiy faollikni oshiradi. Bitta mahalla doirasida ko'plab kichik biznes subyektlarining investitsiya loyihalarini jamlash: Kooperatsiya imkoniyatlarini yaratadi (masalan, umumiy logistika, xomashyo ta'minoti, xizmatlar); tarmoq integratsiyasini kuchaytiradi (xomashyo–yarim tayyor mahsulot–tayyor mahsulot zanjiri); hududiy infratuzilma resurslaridan birgalikda samarali foydalanishga zamin yaratadi. 200 milliard so'mdan ortiq investitsiya umumiy qiymati bu loyihalarning katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu taklif hududlar kesimida kichik biznes subyektlarini klaster tarzida rivojlantirish, samarali davlat-xususiy sheriklik modelini joriy etish va mahalliy infratuzilmani kompleks yondashuv orqali yaxshilash uchun muhim moliyaviy va strategik mexanizmdir. Uning natijasida: Investitsiya loyihalarining tez va samarali ishga tushishi ta'minlanadi; yangi ish o'rinlari yaratiladi; mahalla iqtisodiyoti va infratuzilmasi birgalikda rivojlanadi; davlat mablag'lari manzilli va natijadorlikka yo'naltiriladi.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli yil sayin ortib borayotgani keltirilgan statistik ma'lumotlardan yaqqol ko'rinadi. 2024-yilda kichik biznes bilan band bo'lgan aholi soni 10,6 million kishini tashkil qilgan bo'lsa, prognozlarga ko'ra 2030-yilda bu ko'rsatkich 11,4 milliondan oshadi. Bu esa mehnat bozorida kichik biznesning ahamiyati tobora kuchayib, yangi ish o'rinlari yaratishda u yetakchi kuch sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning 2025-2030 yillardagi prognoz qiymatlari⁴⁰

Yil/ko'rsatkich	Kichik biznes bilan band aholi, ming kishi	Kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya mlrd. so'm	Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %	Kichik biznes tadbirkorlarining eksporti, mlrd so'm
Haqiqatda				
2024	10,628.7	255883.8	54.3	114,745.8
Prognoz qiymatlari				
2025	10,844.8	288501.42	55.61	148,021.6
2026	10,963.3	317404.89	55.02	163,971.2
2027	11,081.9	336308.36	56.42	179,920.8
2028	11,200.4	385211.83	58.83	195,870.4
2029	11,318.9	434115.3	61.24	211,820.0
2030	11,437.5	483018.77	62.65	227,769.6

Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshib bormoqda. 2024-yilda kichik biznes korxonalari tomonidan jalb qilingan investitsiyalar 255,9 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 483 trillion so'mdan ortishi kutilmoqda. Demakki, kichik biznes nafaqat mehnat bandligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sishning muhim moliyaviy manbaiga aylanmoqda.



11-rasm. Kichik biznes korxonalarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2025-2030-yillardagi prognoz qiymtlari⁴¹

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham dinamik o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 54,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilda 62,65 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa kichik biznesning iqtisodiyotdagi tarkibiy ulushi tobora kuchayib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy sektor sifatida maydonga chiqayotganini bildiradi.

⁴⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

⁴¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Eksport ko'rsatkichlarida ham barqaror o'sish kuzatilmoqda. 2024-yilda kichik biznes subyektlarining eksporti 114,7 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2030-yilga kelib 227,8 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu raqamlar kichik biznesning nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki tashqi bozorlarga ham faol kirib borayotganini isbotlaydi. Natijada, mamlakatning valyuta tushumlari va xalqaro raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

2024-2030-yillar uchun tuzilgan prognozlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi barqaror va izchil ravishda o'sib borishini ko'rsatmoqda. Aholi bandligidan tortib investitsiyalargacha, yalpi ichki mahsulotdagi ulushdan tortib eksport hajmigacha bo'lgan barcha ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaga ega. Shu bois, kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining strategik yo'nalishi sifatida davom ettirilsa, bu mamlakat iqtisodiy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu sohaning o'sishi va barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunda investitsiyalarning samarali jalb etilishi va ulardan oqilona foydalanilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirildi:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, uning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiyalar esa kichik biznesning o'sishi va samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega resurslardan biridir. Investitsiyalar samaradorligini oshirish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va innovatsion salohiyatni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, investitsiyalarni samarali boshqarish va maqsadli yo'naltirish orqali moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlik ta'minlanadi.

2. Kichik biznes va mikrofirmalarning eksport va import hajmlarini tahlil qilish natijasida, ularning tashqi savdo faoliyatida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 2018-2024-yillar davomida eksport hajmi doimiy o'sish sur'atini ko'rsatib, kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari kengaygani va mahsulotlar hajmi hamda sifatining yaxshilanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, import hajmining yuqori darajada qolishi ichki bozor ehtiyojlarini qondirishda chet el mahsulotlariga bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish zaruratini ta'kidlaydi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining o'sishi va kichik biznes korxonalarining

investitsiyalar tarkibidagi ulushining ortishi iqtisodiyotda kichik biznes sektorining rolini yanada kuchaytirayotganini bildiradi. Ushbu o'sish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada kuchaytirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda investitsiyalarni oqilona yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. 2018-2024-yillar davomida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning turli sohalarida barqaror o'sish ko'rsatmoqda. Umumiy YaIMdagi ulushi biroz pasaygan bo'lsa-da, savdo, qurilish, xizmatlar va transport sohalarida kichik biznesning ulushi yuqori va barqaror. Investitsiyalar hajmi sezilarli o'sib, ayniqsa asosiy kapital va mashina-uskunalar sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'paygan. Tashqi savdoda esa kichik biznes eksportda ulushini oshirib, importda esa barqaror darajada yuqori ulushni saqlab qolmoqda. Bandlikdagi roli ham katta bo'lib, iqtisodiy faoliyatning muhim qismi hisoblanadi. Bu natijalar kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati oshib borayotganini va uni qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

4. 2018-2024-yillar davomida O'zbekistonda kichik biznesning investitsiya resurslaridan foydalanishi sezilarli darajada oshdi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar deyarli besh barobarga ko'payib, 47,2 trillion so'mdan 255,9 trillion so'mga yetdi. Mashina uskunalar va xo'jalik jihozlarini sotib olishga qaratilgan investitsiyalar ham jadal o'sdi, bu esa kichik biznesning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga intilayotganini ko'rsatadi. Korxonaning o'z mablag'lari va chet el investorlari mablag'lari orqali amalga oshirilgan investitsiyalar ham ortib, kichik biznesning moliyaviy mustaqilligini va xalqaro investitsiyalarni jalb etish qobiliyatini oshirdi. Umuman olganda, kichik biznesning investitsiya resurslaridan samarali foydalanishi uning rivojlanishiga va iqtisodiyotdagi rolining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Bu tendensiyani qo'llab-quvvatlash va kengaytirish uchun moliyaviy imkoniyatlarni oshirish muhim ahamiyatga ega.

5. AQSH, Xitoy va Singapur tajribalari kichik biznes va tadbirkorlikda investitsiyalarni jalb qilishda davlatning faol roli, moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini soddalashtirishning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlarda kichik biznes uchun kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari va texnologik infratuzilma investitsiyalarni jalb qilishni sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, xususiy sektor va davlat hamkorligi, shuningdek, innovatsion ekotizimning rivojlanishi kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

6. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2018-2024 yillarda ko'plab sohalarida muhim darajada saqlanib qolgan. Eng yuqori ulush qishloq xo'jaligi, savdo, qurilish va bandlik sohalarida kuzatiladi. YaIMdagi kichik biznes ulushi esa biroz pasaygan bo'lsa-da, investitsiya va eksport sohalarida o'sish tendensiyasi mavjud. Umuman olganda, kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismida barqaror ahamiyatga ega va uning roli ortib bormoqda.

7. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish orqali kichik biznesning raqobatbardoshligi va o‘shish sur‘atlari oshiriladi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash hamda eksport salohiyatini kengaytirishga imkon beradi. Shuningdek, davlat tomonidan qulay investitsion muhit yaratish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va infratuzilmani rivojlantirish kichik biznesning investitsiya samaradorligini oshirishda muhim omillardir. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun kichik biznes va tadbirkorlik sohasida investitsiyalarni oqilona boshqarish va samarali yo‘naltirish zarur.

8. Har yili oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan resurslarning kamida 100 mlrd so‘m qismini kasanachilik loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirish taklif etilgan; kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining loyiholari qiymati 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foiz miqdorda tashabbuskorning ustav kapitaliga ko‘chmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko‘rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritish taklif etilgan; tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari tomonidan milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank kafolati va akkreditivlarga umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etish taklif etilgan; tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish va asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish taklif etilgan; bitta mahallada joylashgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bir nechta loyihalarining umumiy qiymati 200 milliard so‘mdan oshgan taqdirda, ushbu loyihalarining tashqi infratuzilma obyektlarini 30 foizni davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirish taklif etilgan.

9. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish muhim masaladir. Kichik biznesni rivojlantirish uchun investitsiyalarni ko‘paytirish va ularni samarali yo‘naltirish zarur. Bu orqali iqtisodiy o‘shish sur‘atlari tezlashadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mamlakat eksport salohiyati oshadi. Investitsiya samaradorligini oshirish uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan kreditlar va infratuzilmani rivojlantirish kabi choralar amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va raqobatbardosh muhit yaratish kichik biznesning barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun kichik biznesdagi investitsiyalar samaradorligini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

10. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligi oshirilmoqda, biroq hali ba‘zi to‘siqlar mavjud. So‘nggi yillarda soliq imtiyozlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va raqamlashtirish orqali kichik biznesni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hududiy farqlar bo‘lishiga qaramay, kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli ortib bormoqda. Investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun kreditlash sharoitlarini yaxshilash,

byurokratik to'siqlarni kamaytirish va innovatsiyalarni keng joriy etish muhim hisoblanadi.

11. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish so'nggi yillarda diqqat markazida turibdi. Kichik biznes iqtisodiyotda muhim o'rin egallab, ularning iqtisodiy faoliyat tarmoqlari kengayib bormoqda, xususan savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarida. Davlat tomonidan kichik biznes uchun soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, subsidiya va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlashlar taqdim etilmoqda. Bu esa investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtirib, biznesning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali kichik biznesning samaradorligi oshirilmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№ DSc.03/30.12.2019.I.03.05 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАРИМОВА КОМИЛА ДАНИЯРОВНА

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В МАЛОМ
БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

08.00.07 – «Финансы, денежное обращение и кредит»

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована под номером B2025.3.DSc/Iqt496 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.idtu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Официальные оппоненты:

Жумаев Нодир Хасиятович
доктор экономических наук, профессор

Аллаева Гулчехра Жалгасовна
доктор экономических наук, профессор


Тошпулатов Даврон Акромович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: Филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова в городе Ташкенте

Защита диссертации состоится «13» 11 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета № DSc. 03/30.12.2019.1.03.05 при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова. (Адрес: 100095, город Ташкент, улица Университетская, дом 2. Тел.: (99871) (99871) 207 07-32; (99871) 207-14-64, e-mail: ldtu_info@ldtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова (зарегистрировано под номером 61). (Адрес: г. Ташкент; улица Университетская, дом 2. Тел.: (99871) 207 07-32; (99871) 207-14-64).

Автореферат диссертации разослан «30» 10 2025 года
(протокол реестра № 13 от «13» 11 2025 года).



М.А.Икрамов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор



О.И.Бегмуллаев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент

М.А.Тилляходжаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Усиление глобальной конкуренции и финансовой нестабильности в мировой экономике повышают требования к эффективному использованию инвестиций. Под воздействием многочисленных факторов нестабильности международного и национального масштаба возникают несоответствия между использованием инвестиций и экономическим ростом. Повышение эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности, внедрение современных технологий в отраслях экономики создают возможности для производства конкурентоспособной продукции, развития высокотехнологичных производств по глубокой переработке минерального сырья и сельскохозяйственных ресурсов, увеличения экспортного потенциала страны. Такая возможность и обеспечение эффективности социально-экономических реформ, направленных на её достижение, непосредственно зависят от того, на каком уровне и в какой форме они привлечены. По данным Конференции ООН по торговле и развитию (UNCTAD), в 2024 году в развитых странах на долю малого бизнеса приходится 85 процентов произведённой продукции, а в развивающихся странах – 62 процентов⁴². Эта разница свидетельствует о том, что в развитых странах высока роль малого бизнеса в промышленности, тогда как в развивающихся странах этот потенциал ещё не полностью реализован. Данное обстоятельство может быть связано с экономической политикой, инфраструктурой, возможностями финансирования и уровнем технологического развития. В связи с этим требуется обеспечение экономического и социального развития на основе повышения эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности.

В условиях глобальной экономической нестабильности в мире осуществляются научные исследования, посвящённые проблемам эффективного использования инвестиций в деятельности субъектов малого бизнеса и предпринимательства. Исследования данного направления направлены на обеспечение финансовой устойчивости малого бизнеса, разработку теоретико-методологических подходов к использованию инвестиций в субъектах предпринимательства, изучение влияния целей устойчивого развития на привлечение инвестиций, внедрение инновационных методов и инструментов эффективного использования иностранных инвестиций, совершенствование методов оценки эффективности предпринимательской деятельности в условиях конкурентной среды, формирование широких возможностей для создания новых рабочих мест и повышения доходов населения, выявление региональных различий в инвестиционном климате, определение современных тенденций в потоке инвестиционных ресурсов, снижение инвестиционных рисков и разработку стратегий рационального использования ресурсов. Исследования также охватывают вопросы стимулирования инновационной деятельности малых

⁴² <https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2024>

предпринимателей, особенно в развивающихся странах, и их выхода на международный рынок. Внедрение современных технологий также выступает важным фактором повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса. Это подтверждает необходимость проведения научных исследований по повышению эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности.

В Узбекистане в обеспечении социально-экономического развития, повышении уровня жизни и благосостояния населения особое внимание уделяется вопросам более широкого использования возможностей повышения эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности. В этой связи правительством реализуется ряд реформ, направленных на расширение налоговых льгот, кредитных ресурсов, совершенствование среды инвестиционной деятельности субъектов малого бизнеса и организационно-экономических механизмов на основе требований рынка, изучение их экономического состояния, разработку государственных программ, направленные на финансовую, правовую и организационную поддержку малого бизнеса, повышение правовой грамотности предпринимателей, обеспечение прозрачности при ведении бизнеса, улучшение инфраструктуры и создание благоприятной среды для предпринимателей. Принимаются меры по повышению эффективности посредством финансовой поддержки субъектов малого бизнеса, обеспечения их доступа к рыночной инфраструктуре и внедрения цифровых технологий. Также посредством привлечения внутренних и иностранных инвестиций расширяются возможности создания новых рабочих мест и увеличения экспортного потенциала. Обозначены приоритетные задачи в 2025 году «довести долю малого и среднего бизнеса в валовом внутреннем продукте до 55 процентов, в промышленности до 34 процентов, в экспорте до 34 процентов, в обеспечении занятости населения до 75 процентов»⁴³. При этом вопросы повышения эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности обретают особое значение и подтверждают актуальность темы данной диссертационной работы.

Данное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан - 2030»» от 11 сентября 2023 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-37 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан-2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»» от 21 февраля 2024 года, № УП-50 «О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике» от 19 марта 2025 года, № УП-193 «О мерах по совершенствованию системы финансовой поддержки малого и среднего бизнеса» от 10 ноября 2023 года, № УП-132 «О мерах по реализации задач, определенных в четвертом открытом диалоге Президента Республики

⁴³ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-50 «О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике» от 19 марта 2025 года.

Узбекистан с предпринимателями» от 30 августа 2024 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-312 «О мерах по совершенствованию Комплексной программы непрерывной поддержки малого бизнеса» от 7 сентября 2024 года, № ПП-306 «О мерах финансовой и институциональной поддержки развития малого бизнеса» от 14 сентября 2023 года, № ПП-39 «О дополнительных мерах по поднятию на новый этап поддержки бизнес-инициатив населения в рамках программ развития семейного предпринимательства» от 31 января 2023 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 37 «О мерах по реализации комплексной программы «Непрерывная поддержка малого бизнеса»» от 20 января 2024 года и других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики I. “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴⁴. Многогранные исследовательские работы, связанные с основными направлениями повышения эффективности инвестиций в малом бизнесе и предпринимательской деятельности проводятся престижными научными, аналитическими центрами и высшими учебными заведениями мира, международными и региональными организациями, связанными с данной сферой, такими как Всемирный банк (The World bank), Международный валютный фонд (IMF-International Monetary Fund), Национальное бюро экономических исследований (NBER-National Bureau of Economic Research), Harvard University, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, University of Chicago, Columbia University, Princeton University, Duke University

